



6-7 YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rashidova Zulayho Olimjon qizi

MTTDMQTMOI 2-bosqich tayanch doktoranti

Zulichka_1990@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7483132>

ARTICLE INFO

Received: 14th December 2022

Accepted: 25th December 2022

Online: 26th December 2022

KEY WORDS

Ijtimoiy ko'nikmalar, ijtimoiy va hissiy rivojlanish, maktabgacha ta'lim.

ABSTRACT

Mazkur maqolada maktabgacha yosh davri aynan 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlarning har tomonlama rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish masalalariga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yilni O'zbekistonda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb taklif qilinishi ham bejizga emas.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyev O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida O'zbekistonda yangi bir uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgani haqida gapirdi¹. Shu bilan birga "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" to'g'risidagi Qonunda shunday deyilgan: "Maktabgacha bo'lgan yosh - bola

shaxsining jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllanishining asosiy davridir"². Ijtimoiy va hissiy rivojlanish o'z-o'zini ifoda etish, his-tuyg'ularni boshqarish, o'zi va atrof-muhit bilan uyg'un bo'lish qobiliyatlari sifatida qaraladi. Ushbu rivojlanish bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning ijtimoiylashuvi hamda hissiyotlarini namoyon qilishlari bevosita tengdoshlari va kattalar bilan muloqoti orqali namoyon qilinadi. 6-7 yoshdagi bolada tengdoshlari bilan muloqot qilish, boshqalar bilan o'zini solishtirish, taqlid qilishga nisbatan ehtiyoj kuchayib boradi. Faoliyatda (o'yin, mahsuldor faoliyatda) tengdosh - sherigi sifatida qatnashadi. Tengdoshlari bilan muloqot davrida bolalar o'yinda va boshqa faoliyatda ma'lumotlar, rejalar, vazifalarning taqsimlanishi asosida

¹"O'zbekistonda yangi bir uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yilmoqda" // Prezident SH.Mirziyoyevning O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.<https://kun.uz/news/2020/08/31/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonda-yangi-bir-uygonish-uchinchi-renessans-davriga-poydevor-qo'yilmoqda> Murojaat qilingan sana:11.10.2020.

² Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi O'RB-595-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,17.12.2019 y.,03/19/595/4160-son.-20 b.<https://lex.uz/docs/4646908>



birgalikda faoliyat olib borishga intiladi. Yoshga qarab muloqot bolaning hissiyotini, o'zaro tushunishini, tengdoshlariga nisbatan hissiy yaqinlikni tasvirlay boshlaydi. 7 yoshga borib bola tengdoshining shaxsiy xususiyatlarini ajrata boshlaydi ("qiziqarli o'yinlarni o'ylab topadi", " yaxshi yuguradi", " juda yaxshi bola" va boshqalar).

Quyida olimlarning muloqot hamda shaxslararo munosabat haqidagi izlanishlari keltirilgan.

Ijtimoiy moslashuv ijtimoiy va hissiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biridir. Ijtimoiy moslashuv jarayoni-bu shaxslarning ma'lum bir guruhga mansublik hissi va qadriyatlarini o'zaro tan olish jarayoni. Bu jarayon inson tug'ilgandan boshlab umri davomida davom etadi, ammo eng sezitiv davr bu maktabgacha yosh davri³.

L.S.Vigotskiy shaxslararo munosabatlarda asosiy qurol va vosita muloqot jarayoni ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, shaxslararo munosabatlarda dastavval muloqot asosiy vosita, so'ngra esa xulq-atvor turadi. Chunki inson yakka qolgan paytda ham muloqot funksiyasini o'zida saqlaydi.

V.M.Bexterevning boy merosida shaxslararo munosabatlar muammosi, xususan, muloqot mavzusi ijtimoiy psixologik nazariya jihatidan o'rganilgandir. Uning qarashlarida insonlarning o'zaro ta'sir etishlari muhim muammo sifatida talqin etiladi. V.M.Bexterev ijtimoiy hayotda muloqotning rolini tavsiflab, uning funksiyalarini hamkorlik faoliyatini amalga oshirish mexanizmi sifatida ajratib talqin qiladi. Uning fikricha, shaxsning atrofdagilari bilan muloqoti qanchalik xilma-xil va boy

bo'lsa, shunchalik uning taraqqiyoti muvaffaqiyatli amalga oshadi.

V.M.Bexterev muloqotning ijtimoiy roli va funksiyasini tahlil etishda uning ko'rinishlari bo'lmish taqlid va ta'sirlanish ahamiyatiga to'xtaladi.

Kattalarning ta'siri ostida bolada vaziyatdan tashqari muloqotga kirishish kabi yangi shakllari yuzaga keladiki, bu sharoitda bola "odamlar dunyosiga" moslashadi. Bola insonni o'zi yashab turgan jamiyat vakili sifatida anglay boshlaydi, ijtimoiy hayotda o'zaro bog'liqlikni bila boshlaydi. Muloqot qilishning bunday shakli o'yinning shakllanishiga bog'liq, chunki o'ynash davrida bolalarni insonlarning o'zaro munosabatlari, jamiyatdagi o'zlarini tutishlari qiziqtiradi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar kattalarning samimiy diqqatiga va hamkorlikda ish olib borishga intilmaydi, balki kattalar bolalarni hurmat qilishlarini, o'zaro tushunishlarini xohlaydi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotga kirishish malakasi yuqori bo'ladi. Bolalar tomonidan beriladigan taklif, iltimos, baholanish ancha asoslangan holda ifodalanadi. 7 yoshdagi bolalar hayotida tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ehtiyoji kuchayadi. Xulq-atvor me'yorlari va qonun - qoidalarni egallash natijasida shakllangan etik me'yorlarni aks ettiradi va bu me'yorlarni faqat o'zigagina nisbatan ishlatmaydi. Bola shaxsi mustaqil, hech kimga qaram bo'lmagan holda shakllana boshlaydi. Bolaning ijtimoiy tajribasi, atrofdagilarga nisbatan o'zaro munosabati ortadi. Bu narsa bolaning o'zini, o'z mavqeini va kamchiliklarini anglashga olib keladi. Ilk va kichik yoshdagi bolalardan farqli ravishda katta maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarini kattalarning baholanishi bilan belgilaydilar,



katta maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil ravishda o'zlari to'g'risida tasavvurga ega bo'ladilar va o'zlarini, o'z holatlarini va tashqi xususiyatlarini baholash imkoniyati bor⁴.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha o'zining shaxsiy axloqiy sifatlarini baholay va bu sifatarni anglay boshlaydilar, hissiy holatlarni ajrata boshlaydilar. Mustaqilligi oshadi, bolalar tomonidan baholash va o'z-o'zini baholashga nisbatan tanqid ortadi. Bolalar birinchi navbat tengdoshlarining va o'z-o'zlarining sifatlar va xususiyatlarni baholaydilar va shunga qarab o'zlarining guruhdagi mavqeilarini aniqlab olishlari mumkin. Maktabgacha yosh davrida bolalar boshqa bolalarni o'zlariga nisbatan tabiiy baholay boshlaydilar. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'zlarini baholashlari kichik maktabgacha yoshdagi bolalarnikidek yuqori hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning o'z-o'zini baholashi, o'zi to'g'risidagi fikrlari to'liq, asoslangan holda kechadi. Bola o'zini, o'zining kattalar va tengdoshlari o'rtasidagi mavqeini, atrofdagilarga bo'lgan munosabatini anglay boshlaydi.

Katta yoshdagi bolalarning har tomonlama shakllantirish shartlaridan biri bu kattalar va tengdoshlari bilan mazmunli muloqotga kirishish hisoblanadi. Tarbiyachi har bir bola bilan muloqotga kirishishni turli - tuman bo'lishiga intiladi. O'zaro muloqot va hamkorlikka kirishar ekan, tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolaga nisbatan ishonch, muhabbat, va hurmat hissini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda o'zaro muloqot qilishning bir necha modelidan foydalanadi: tajriba o'tkazish orqali tarbiyachi bolani yangi ko'nikmalarga, holatlarni bajarishga o'rgatadi; teng

sharikchilik orqali tarbiyachi bolalar faoliyatining faol qatnashchisi sifatida, "kattalarga suyanish" orqali tarbiyachi bolalarga atayin yordam so'rab muammolarni yechishga, "kattalar tomonidan qilingan xatolarni" to'g'rilashda maslahatlar berishni taklif qiladi.

7 yoshli bolalarda o'z - o'zini anglashda o'ziga va boshqalarga nisbatan munosabatni baholash asosiy ko'rsatgich qisoblanadi. Bolaning o'zining kelajakdagi qiyofasi haqida ijobiy tasavvuri birinchi marotaba bolaning o'ziga o'zining kamchiliklariga nisbatan tanqidiy jihatidan munosabatda bo'lishga va kattalar yordamida bu kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bola shu tariqa o'zi haqida va kelgusida qanday shakllanishi yoki qanday bo'lish xohishiga qarab tasavvurlari solishtiriladi. Bolaning "Men"ini bola tomonidan ijobiy tasavvur qilinishi faoliyatini muvafaqqiyatli olib borilishiga do'stlar orttirishiga, boshqalarning do'stlar orttirishiga: ularning o'zaro birgalikdagi faoliyatlaridagi ijobiy sifatlariga ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bola tashqi dunyo bilan o'zaro muloqotga kirishar , asosiy rolini ijro etar ekan, u bu dunyoni anglaydi, shu tariqa bola o'z-o'zini anglaydi. O'z-o'zini anglash orqali bola o'zi to'g'risida va atrofidagi dunyo to'g'risida bilimga ega bo'ladi. O'z-o'zini anglash tajribasi maktabgacha yoshdagi bolalarda tengdoshlariga nisbatan salbiy oqibatlarini, nizoli vaziyatlarni yengish malakalarini shakllantiradi. O'z imkoniyatlarini va o'z xususiyatlarini bilish orqali atrofidagi odamlarning bola uchun ahamiyatini tushunishga intiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, katta maktabgacha yoshdagi bolalar o'zi to'g'risidagi tasavvurlarga katta e'tibor



qaratadi. Mazkur yoshda bola o'z- o'zini anglash, o'ziga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, atrofdagilar bilan

muloqotga kirishish ko'nikmalarini egallagan bo'ladi.

References:

1. "O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renesans davriga poydevor qo'yilmoqda" // Prezident SH.Mirziyoyevning O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.<https://kun.uz/news/2020/08/31/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonda-yangi-bir-uygonish-uchinchi-renessans-davriga-poydevor-qo'yilmoqda> Murojaat qilingan sana:11.10.2020.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi O'RQ-595-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,17.12.2019 y.,03/19/595/4160-son.–20 b.<https://lex.uz/docs/4646908>
3. Günseli Yildirim - Naşide Nur Karaman //International Periodical for the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 11/9 Spring 2016, p. 965-978 ISSN: 1308-2140ANKARA-TURKEY.
4. K.Nizomova "Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy - hissiy rivojlantirishning o'ziga xosligi"-Toshkent 2009.